



“YOSH TADQIQOTCHI” ilmiy elektron jurnali

Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

QISHLOQ XO'JALIGIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIGI LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISHNING YEVROPA TAJRIBASI

Utegenov Qanishbay Djadigerovich¹ Seyfullaeva Ayzada Tolibekovna² Nuranov
Ilxam Bahadir uli³

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti¹

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti magistranti²

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi³

INFO:

Qabul qilindi: 22.02.2022

Ko'rib chiqildi: 22.02.2022

Chop etildi: 23.02.2022

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi,
sharikchilik

ANNOTATSIYA

Jahon amaliyotida ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish va keyinchalik boshqarish maqsadida xususiy kapitalni jalb etish uchun davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmidan keng foydalaniladi va umuman zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning ob'ektiv shart bo'lgan trendi hisoblanadi. Bunda jahon amaliyotida DXShni rivojlantirish turli xil sur'atlarda kechadi: agar Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya va Ispaniyada mazkur bozor yetarlicha shakllangan bo'lsa, lekin boshqa mamlakatlar faqat bunday turdagi dasturlarni joriy etishni boshladi.

Copyright © 2021. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/) tomonidan himoyalangan


Jahon amaliyotida ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish va keyinchalik boshqarish maqsadida xususiy kapitalni jalb etish uchun davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmidan keng foydalaniladi va umuman zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning ob'ektiv shart bo'lgan trendi hisoblanadi. Bunda jahon amaliyotida DXShni rivojlantirish turli xil sur'atlarda kechadi: agar Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya va Ispaniyada mazkur bozor yetarlicha shakllangan bo'lsa, lekin boshqa mamlakatlar faqat bunday turdagi dasturlarni joriy etishni boshladi.

Shu vaqtning o'zida Yevropa Ittifoqining (EI) ko'pchilik mamlakatlari DXShni qo'llashda kerakli tajribaga ega emas, ayrimlari esa umuman unga ega emas. Xo'jalik sohasida davlat va biznes sheriklik munosabatlarining mazmunini belgilab beruvchi fundamental iqtisodiy va siyosiy qoidalar va yuridik normalar yetakchi mamlakatlarda bir necha yuz yillar davomida shakllangan. Qoidaga ko'ra, sheriklar o'rtasida hamkorlik har xil qonuniy strukturalar doirasida vazifa va kompetentsiyalar ko'lamining ko'pxilligi bilan ma'lum vaqt harakatda bo'ladi.

Ko'pchilik mamlakatlar DXShni rivojlantirishning birinchi bosqichida turibdi, bunda hali loyihalar soni kam. Faqat uchinchi bosqichda (faoliyatning yuqori darajasi va rivojlanish darajasi) daraja bo'yicha uncha ko'p bo'lmagan mamlakatlar turadigan DXSh loyihalari ahamiyatli bo'lib qoladi. Ushbu bosqichda mamlakatlarda zarur institutlar, texnologiyalar va qarorlar qabul qilish “nou-xau”si rivojlantiriladi, ancha murakkab loyihalar va moliyaviy sxemalarni amalga oshirishga e'tibor qaratiladi [3].

DXSh printsiplarida loyihalarni ishlab chiqish va realizatsiya qilish ko'pchilik rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda amalga oshiriladi. Eng muvaffaqiyatli loyihalar Buyuk Britaniya, AQSh, Irlandiya, Isroil, Frantsiya, Italiya, Germaniya, Yaponiya kabi mamlakatlarda amalga oshirilmoqda. Davlat-xususiy loyihalari sohasida tan olingan peshqadamlar AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya va Germaniya hisoblanadi. Har bir davlatda DXShni qo'llash uchun ustivor tarmoqlar mavjud. Yevropada iqtisodiyotning DXSh loyihalari amalga oshiriladigan eng afzal sektorlari infrastruktura sohasi, uy-joy kommunal xo'jaligi (UJKX), yo'l qurilishi va rekonstruksiyasi, ta'lim, sog'liqni saqlash hisoblanadi. DXShni qo'llash iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda eng ko'p tarqalgan.

Umuman olganda, YEI mamlakatlarida davlat-xususiy sherikligini qo'llash yetarlicha rang barang va turli tarmoqlarda (transport, uy joy-kommunal xo'jaligi, ekologiya, ko'chmas mulk, jamoat tartibi va xavfsizligi, telekommunikatsiya, moliyaviy sektor, ta'lim) amalga oshirilishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. 2019 yilda tarmoqlar bo'yicha DXSh loyihalarining Yevropa bozori

EI mamlakatlarida oxirgi yillarda DXShda ustivor tarmoqlarni ijtimoiy-ahamiyatli loyihalar tomoniga qayta taqsimlash kuzatilmoqda. Ta'lim sohasi oxirgi yillarda DXSh bitimlari soni bo'yicha lider bo'lib turibdi, 2019 yil holatiga loyihalar ulushi 31 % ni tashkil etgan, DXSh uchun an'anaviy bo'lgan transport sohasidan ilgarilab ketgan (25 %). DXSh bitimlar umumiy hajmida sog'liqni saqlash sezilarli pozitsiyani (21 %) egallaydi. Ta'lim va sog'liqni saqlashning yalpi ulushida bitimlar soni bo'yicha 45 % gacha o'sgan, loyihalar qiymati bo'yicha esa transport sohasiga 58% gacha bitimlar to'g'ri keladi.

Oxirgi ikki yilda transport sektoriga DXSh bozori umumiy hajmining uchdan bir qismidan ortig'i to'g'ri keladi (qiymat ko'rinishida). Transport sohasida DXSh loyihasi o'rtacha qiymati 407 mln. yevroni tashkil etgan. Shu vaqtning o'zida ta'lim sektorida bitimlarning eng ko'p soni (19 ta loyiha 1,9 mlrd. yevro summasida) ro'yxatga olingan. Transport sohasida keng ko'lamli DXSh loyihalarni amalga oshirilayotgan YeIning beshta mamlakatini ajratish lozim, bu: Frantsiya (Port of Calais loyihalaridan biri – 50 mln. yevro), Germaniya (A6 Wiesloch-Rauenberg to Weinsberg PPP loyihasi – 250 mln. yevro, A7 Bordesholm-Hamburg Motorway – 157 mln. yevro), Irlandiya (M11 Gorey – Enniscorthy Motorway – 109 mln. yevro), Niderlandiya (Ijmuiden Sealock- 163 mln. yevro), Italiya (Autostrada BreBeMi - 700 mln. yevro) va Slovakiya .

Qishloq xo'jaligi chet elda DXSh-loyihalari soni bo'yicha peshqadam hisoblanmaydi, lekin, shunga qaramay ularni amalga oshirishning ijobiy xorijiy tajribasi mavjud.

EI mamlakatlari qishloq xo'jaligida davlat va xususiy investitsiyalarning EIB ishtirokidagi ulush bilan 2018-2019 yillarda amalga oshirilgan asosiy investitsiya loyihalari tahlilini o'tkazamiz.

2019 yilda agrar sohada 46 mln. yevro sumada ikkita loyiha amalga oshirildi. Bu Galicia (36 mln. yevro) qishloq hududlarini rivojlantirishga investitsiyalar kabi loyihalar hamda davom ettirilayotgan loyiha doirasida Latviyaning (10 mln. yevro) qishloq tumanlarini rivojlantirish bo'yicha loyiha.

2019 yilda agrar sohada davlat, biznes va moliyaviy strukturlara ishtirokida umumiy qiymati 1524,7 mln. yevro bo'lgan 9 ta investitsion loyiha amalga oshirildi. To'qqizta loyihadan 5 ta (Estoniya, Ispaniya, Vengriya, Ruminiya, Slovakiya) davom ettirilayotgan loyiha yevropa banki tomonidan qo'llab-quvvatlandi (1-jadval).

*Evropa investitsiya banki ma'lumotlari bo'yicha tuzilgan.

Evropa investitsiya banki 2019 yilda Galitsiya (Ispaniya) hukumatiga 400 mln yevro kredit taqdim etdi. Mablag'lar EFSI dasturi va 2014-2020 yillarda YeI qishloq tumanlarini rivojlantirish dasturi doirasida investitsiyalarni hamkorlikda moliyalashtirish uchun foydalanildi. Galitsiyaning asosiy investitsiya ustivor yo'nalishlari rivojlantirish strategiyasiga muvofiq aniqlangan va sog'liqni saqlash, axborot texnologiyalari, tabiiy resurslardan foydalanish, yong'inlarni bartaraf etish va qishloq tumanlarda asosiy infrastrukturalar sohasida ilmiy tadqiqotlarni va innovatsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Yirik investitsiya loyihalaridan biri Latviya bilan loyiha hisoblanadi. EIB 2020 yilgacha Latviyaning qishloq tumanlarini rivojlantirish sohalaridan biri hisoblangan strategik investitsiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun 200 mln. yevro taqdim etdi. Qishloq tumanlarini rivojlantirish Rejasining asosiy maqsadlari iqtisodiy faol va bozorga yo'naltirilgan fermalar sonini ko'paytirish uchun, ularning raqobatbardoshligini oshirish hamda qishloq va o'rmon xo'jaligida hamkorlikka ko'maklashish uchun investitsiyalar hisoblanadi.

Loyiha	Mamlakat	Loyiha summasi, mln. yevro
2018 y.		
EI moliyalashtirish jamg'armalari Galicia 2014-2020 yy. (EU FUNDS GALICIA CO-FINANCING 2014-2020)	Ispaniya	36,0
EI moliyalashtirish jamg'armalari 2014-2020 yy. (EU FUNDS CO-FINANCING 2014-2020) Lv	Latviya	10,0
2019 y.		
Slovakia RDP 2014-2020 So-financing	Slovakiya	250,0
Romania EU CO-FINANCING FOR GROWTH 2014-2020	Ruminiya	18,0
POLAND RURAL DEVELOPMENT CO-FINANCING	Pol'sha	700,0
RURAL DEVELOPMENT CO-FINANCING 2014-2020 (HU)	Vengriya	400,0
EU FUNDS CASTILLA YLEON CO-FINANCING 2014-2020	Ispaniya	18,2
DASOS FUND II SO-INVESTMENT FORESTRY IRELAND	Irlandiya	14,25
DASOS FUND II SO-INVESTMENT FORESTRY IRELAND	Irlandiya	14,25
EU FUNDS CO-FINANCING 2014-2020 (EST)	Estoniya	20,0
COILLTE SUSTAINABLE FORESTRY	Irlandiya	90,0
Jami 2019 m yilda		1524,7

1-jadval.
EI mamlakatlarida 2018-2019 yillarda qishloq xo'jaligida EIB loyihalarini moliyalashtirish*

Ko'p sonli kichik korxonalar bilan xarakterlanadigan Germaniyaning qishloq xo'jaligi sektori modernizatsiyalash jarayonida turibdi. Fermerlar investitsiya kiritadilar va buning bilan qishloq joylarda iqtisodiy rivojlantirishga imkon beradi. Kredit bitimlari qishloq xo'jaligida, o'rmon xo'jaligida firmalarni, uzumchilik va bog'-tomorqa, va energetikaning tiklanadigan sektorlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Oziq-ovqat sanoatida kompaniyalar va qishloq xo'jaligi sektorida savdo-servis korxonalari ham moliyalashtirish olish huquqiga ega bo'ladi. Kichik va o'rta kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash ilgaridan YeI banki tomonidan moliyalashtirishning asosiy ustivorliklaridan biri hisoblanadi. 2014 yilda EIB guruh (EIB va Yevropa investitsiya jamg'armasi) moliyalashtirishning umumiy hajmi bunday firmalarni qo'llab-quvvatlashga rekord summaga 22 mlrd yevroga yaqin miqdorga yetdi. Kichik biznes iqtisodiyotini mustahkamlash EIBning hal qiluvchi vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Davlat-xususiy sherikchiligi mahalliy qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini global bozorlarga chiqarish uchun, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligi sohasida muhim ahamiyatga ega, chunki fermerlarning texnologiyalarga va yangi bozorlarga kirish imkoniyatini kengaytiradi [1]. Xususiy biznes qishloq xo'jaligida DXShda ishtirok etish uchun ma'lum sabablarga ega:

- ✓ davlat organlari tomonidan agrar loyihalarni to'g'ridan to'g'ri qo'llab-quvvatlash;

- ✓ qishloq xo'jaligiga davlat kafolatlari ostida investitsiyalarni uzoq muddatli joylashtirish imkoniyati;
- ✓ qishloq xo'jaligida innovatsion biznes uchun yangi imkoniyatlar;
- ✓ agrar loyihalarda soliq imtiyozlarini olish.

Davlat-xususiy sherikchiligining Yevropa tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etish byudjet mablag'lari yetishmasligi va eng muammoli tarmoqlarga (UJKX, yo'llar, sog'liqni saqlash va boshqalar) xususiy investitsiyalarni jalb etish sharoitida ayniqsa dolzarbdir. Shu vaqtning o'zida xususiy investitsiyalar qishloq xo'jaligida loyihalarni amalga oshirish uchun, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash uchun, O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish uchun talab etiladi. Mamlakat raqobatbardoshligini oshirishning muhim yo'nalishi hisoblangan agrar sohada DXSh loyihalarini amalga oshirish uchun YeI tajribasidan foydalanish zarur. Bizning iqtisodiyotimiz qator yo'nalishlarda peshqadamlik qilishi lozim. Shunday bo'lsada, ko'pchilik ilmiy ixtirolar va kashfiyotlarni amaliyotga joriy etishning, ularni yangi texnologiyalargacha yetkazishning samarali mexanizmi ishlab chiqilmagan. Oxirgisi, o'z navbatida agar ishlab chiqilgan bo'lsada, lekin yo'l qo'yib bo'lmas darajada sekin joriy etilmoqda.

Shunday qilib, YeI mamlakatlari iqtisodiyoti turli sohalarini rivojlantirishda DXSh roli ahamiyatli bo'lib qolmoqda. Yevropa mamalakatlari bo'yicha DXSh loyihalari amaliyoti tahlili ko'rsatib turibdiki, barcha mamlakatlar ham investitsiya loyihalarini amalga oshirishda davlat-xususiy sherikchiligidan keng foydalanadi, bu ular iqtisodiyotining rivojlanish darajasi bilan bog'liq. Demak, ularni "Katta yettilik" mamlakatlarida, YeIning boshqa rivojlangan mamlakatlarida va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida faol amalga oshiriladigan DXSh loyihalariga bo'lish mumkin. Rivojlanish darajasi DXSh loyihalarini amalga oshirish sohasi bilan ham to'g'ridan to'g'ri bir biri bilan bog'liq. Demak, "Katta yettilik" mamlakatlarida loyihalarning eng ko'p ulushini sog'liqni saqlash va ta'lim tarmoqlari egallaydi, rivojlangan mamlakatlarda – yo'l tarmoqlari, keyin UJKX, mudofaa sohasi ketadi va boshqalar. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarini iqtisodiy rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari iqtisodiyotning innovatsion tarmoqlari kabi sohalariga xususiy kapitalni jalb etishning yangi yo'nalishini aniqlaydi [2].

Davlat-xususiy sherikchiligi – O'zbekiston qishloq xo'jaligi uchun umuman yangi sohadir. Bizning mamlakatimizda mazkur mexanizmdan foydalanish tajribasi yo'q, shu sababli birlamchi bosqichlarda tezlikni va natijadorlikni prognoz qilish qiyin. Modomiki, tugallangan, ishlab chiqarishga qabul qilingan va tavsiya etilgan ilmiy-texnik ishlanmalar umumiy sonidan har yili 50% gacha talab qilib olinmay qolib ketadi. 10% dan kam qishloq xo'jaligi tashkilotlari texnologik innovatsiyalarni joriy etadi va 12 %dan ko'p bo'lmagan xo'jaliklar intensiv resurstejovchi tipdagi zamonaviy texnologiyalardan foydalanadi. Shu vaqtning o'zida oziq-ovqat mahsulotlarining jahon eksporterlari hisoblangan agrosanoat sektori rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy ilmiy yutuqlarni joriy etish 80-85% gacha ishlab chiqarishning iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi [4].

Bizning nazarimizda davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish qishloq xo'jaligi tashkilotlari va davlat o'rtasidagi munosabatlarni asosiy vositalarni yangilashning ta'sirchan mexanizmini yaratishga yordam beradigan yangi darajaga chiqarishning eng samarali vositasi bo'lish imkoniyatiga ega va demak mamlakatimizda agrar ishlab chiqarish darajasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 26 апрелдаги “Давлат хусусий шериклик лойиҳаларини амалга ошириш тартибини такомиллаштириш тўғрисида”ги 259-сон қарори. Тошкент. 2020. <https://lex.uz>.

2. Латышева А.И. Информационная инфраструктура инновационных агропроектов // ИТ портал. 2018. №1 (17). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/informatsionnaya_infrastruktura-innovatsionnyh-agroproektov (дата обращения: 10.08.2019).

3. Шафқаров Ф. Агросаноат мажмуасида давлат-хусусий шерикчилиги. // Агроилм журналі. Махсус сон. - 2018. 94-96-б.

4. www.mfer.uz – ЎзРес ташқи иқтисодий фаолият расмий сайти